

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Karimov

A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo’yoq dorlikni saqlash tamoyillari 125

A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova

“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari 129

M.B.Rajabova

Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar 133

G.S.Qurbanova

Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri 140

M.K.Mirzoyev

Farzona Xo’jandiylarida motam marosimining badiiy ifodasi 145

M.A.Jo’rayeva

Cho’ponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari 149

L.A.Masharipova

O’zbeginning go’zal urf-odatlari 154

TILSHUNOSLIK**M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova**

Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari 158

Z.Sh.Pazilova

O’zbek va nemis tillarida to’y bilan bog’liq leksik birliklar 163

M.Y.Xusaynova

O’zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi 168

M.M.Mamajanova

Ingliz tili grammatikasining retseptiv ko’nikmalarini o’rgatish 172

N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova

Tarjimada realiyalar masalasi 176

X.M.Maripova

Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog’liqligi 179

N.A.Mansurova

Tilshunoslikda terminologiya masalalari 183

M.R.Komilova

O’zbek tilshunoslida o’zlashma leksemalarning o’rganilishi tarixi 187

J.X.Djamolov

O’zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni 192

Sh.T.Yusupova

Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida 197

M.O.Batirxanova

Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar” 201

G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova

“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so’zlarning izohlarda ishlatalishi 203

M.M.Nurmatova, M.O.Orripova

Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o’rni 206

MATEMATIKA**A.K.Yusupova, B.Qurbanov**

Ba’zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o’rganish 209

O’.U.Ismailov

Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi 214

FIZIKA- TEXNIKA**E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva**

Oliy ta’lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o’qitishda interfaol metoddan foydalanish 218

**BA'ZI BIOLOGIK JARAYONLARNI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR YORDAMIDA
O'RGANISH**

**ИЗУЧЕНИЕ НЕКОТОРЫХ БИОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ С ПОМОЩЬЮ
ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ**

STUDY OF SOME BIOLOGICAL PROCESSES USING DIFFERENTIAL EQUATIONS

Yusupova Anora Karimovna¹, Qurbanov Burxoniddin²

¹Yusupova Anora Karimovna

– Farg'ona davlat universiteti matematika kafedrasи
dotsenti

²Qurbanov Burxoniddin

– Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada o'z harakat qonunlariga ega biologik jarayonlarni, jumladan, bakteriyalarning ko'payish qonuni, hujayralarning vaqt o'tishi bilan o'sish qonuni, tovush maydonida hujayralarni yo'q qilish qonuni, mushaklarning qisqarish tezligi kabi masalalarni birinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar yordamida o'rganish, turli biologik jarayonlarni matematik modelini tushishda differensial tenglamalarning ahamiyati yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются биологические процессы, в том числе закон размножения бактерий, закон роста клеток во времени, закон разрушения клеток в звуковом поле, скорость мышечного сокращения с использованием обыкновенных дифференциальных уравнений. При изучении данной проблематики подчеркивается важность дифференциальных уравнений в построении математических моделей различных биологических процессов.

Abstract

The article discusses biological processes, including the law of bacterial reproduction, the law of cell growth in time, the law of cell destruction in a sound field, the speed of muscle contraction using ordinary differential equations. When studying this problem, the importance of differential equations in the construction of mathematical models of various biological processes is emphasized.

Kalit so'zlar: biologik jarayonlar, matematik model, o'zgaruvchilarajraladigan differensial tenglamalar.

Ключевые слова: биологические процессы, математическая модель, дифференциальные уравнения с разделяющими переменными.

Key words: biological processes, mathematical model, differential equations with separating variables.

KIRISH

Tabiatda uchraydigan turli jarayonlar, jumladan, biologik jarayonlar o'z harakat qonunlariga ega. Ba'zi biologik jarayonlar bir xil qonuniyat bo'yicha sodir bo'lishi mumkin, bu hol ularni o'rganishni yengillashtiradi. O'zgaruvchi miqdorlar va ularning hosilalari yoki differensiallari orasidagi munosabatni topish imkoniyati bo'ladi. Bu differensial tenglamalar o'rganilayongan jarayonning matematik modelidan iborat bo'ladi. Bu model qancha mukammal bo'lsa, differensial tenglamani qo'llash natijasida olingan ma'lumotlar jarayonni shuncha to'la tavsiflaydi. Shunisi qiziqki, biologiyada uchraydigan turli jarayonlar bir xil differensial tenglamalar bilan tavsiflanishi mumkin. Bu esa "bir o'q bilan ikki qarg'ani otish" imkonini beradi, ya'ni agar differensial tenglama yordamida berilgan biror matematik model to'la o'rganilsa, bu model yordamida turli biologik jarayonlarni o'rganish, ularni tushuntirish imkonini beradi. Quyida shu fikrni tasdiqlashga doir bir necha masalalar keltirilgan.

ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODLAR

Akademik M.S.Salohiddinov, F.N.Nasritdinovlar differensial tenglamalarning fizika, iqtisodiyot, biologiya, kimyo, tibbiyot va boshqa fanlarda uchraydigan ko'plab jarayonlarning differensial tenglamalar yordamida tavsiflanishi ta'kidlab o'tganlar. Tibbiyotda va biologiyada funksional - differensial tenglamalarni qo'llash masalalari yoritilgan bo'lsa, A.K.Yusupova, M.D.Saidaxmedovalar esa biznessda, biologiyadagi, fizikadagi ba'zi masalalarni differensial tenglamalar yordamida izohlash, ularni o'rganishni yoritilganlar. A.K. Yusupova, M. Murodovalar qadimiy tibbiyot masalalarini matematik usulda yechish yo'llari keltirib o'tilganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Differensial tenglamalarlarning biologik jarayonlarni o'rganishda naqadar universal usul ekanligini isbotlash, ko'rsatish uchun qator biologik jarayonlarning differensial tenglamalar yordamida o'rganilish mumkinligini qator misollar yordamida ko'rsatamiz.

1-masala . Bakteriyalarning ko'payish qonuni.

Ma'lum bir vaqt oralig'iда ba'zi bakteriyalarning ko'payish tezligi bakteriyalar soniga proporsional bo'ladi. Bakteriyalar soni o'zgarishining vaqtga bog'liqligini toping.

Bakteriyalar soni o'zgarishining vaqtga bog'liqligini topish uchun hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan bakteriyalar sonini x deb belgilaymiz . Keyin

$$\frac{dx}{dt} = kx$$

tenglikni hosil qilamiz, bu yerda k - mutanosiblik koeffitsienti.

Hosil bo'lgan ushbu differensial tenglamani yechish uchun o'zgaruvchilarni ajratamiz :

$$dx = kx dt$$

$$\frac{dx}{x} = k dt$$

va uni integrallaymiz

$$\int \frac{dx}{x} = \int k dt$$

$$\ln x = kt + \ln C$$

yoki

$$\ln x = e^{kt} + \ln C$$

Biz oxirgi ifodadan

$$x = Ce^{kt}$$

umumiylar yechimni hosil qilamiz.

$$t = 0 , \quad x = x_0$$

deb faraz qilsak,

$$C = x_0$$

kelib chiqadi. Binobarin,

$$x = x_0 e^{kt}$$

tenglama vaqt o'tishi bilan bakteriyalarning ko'payishi qonunini ifodalaydi. Shunday qilib, qulay sharoitlarda bakteriyalarning vaqt o'tishi bilan ko'payishi eksponensial qonunga muvofiq sodir bo'lishini analitik usulda ko'rsata oldik.

Bu qonun nafaqat nazariy, balki amaliy nuqtayi nazardan ham qiziqish uyg'otadi. Unga ko'ra, aholi uchun qulay sharoitlar yaratilsa, juda tez fursatda aholi soni tez sur'atlardan o'sishi mumkin.

Penitsillin haqidagi hikoya bu ma'noda ibratli. Ushbu antibiotik topilgach, uni hosil qiladigan zamburug'lar eng yaxshi sharoitlarda o'stirila boshlandi. Ular juda yaxshi oziqlantirildi, albatta, ular zararli turlardan himoyalantirildi. Kelajakdagagi hosilni yuqoridagi formula bo'yicha aniq hisoblash mumkin edi. Eksponensial qonunga muvofiq ko'payadigan penitsillin qo'ziqorinlari qisqa vaqt ichida butun dunyoni qimmatli dori bilan ta'minladi.

"Ekologik portlash" deb atalmish jarayon ko'payishning eksponensial qonuniga bo'ysunadi, ya'ni u yoki bu biologik turlar uchun qulay sharoitlar yaratilsa, qisqa vaqt ichida ularning soni tez sur'atlarda ko'payadi. Misol uchun, hasharotlar to'dalarining (chigirkalar, pashshalar va boshqalar) ning halokatli bosqinlarini, Avstraliyada quyonlarning iqlimga moslashishining kutilmagan oqibatlarini ko'rsatish mumkin.

2-masala. Hujayralarning vaqt o'tishi bilan o'sish qonuni.

Hujayra yuzasining uning hajmiga nisbatli doimiy bo'lgan tayoqcha shaklidagi hujayralar uchun hujayra o'sish tezligi dt / dt ma'lum bir vaqtda hujayra uzunligi / ga mutanosibdir:

MATEMATIKA

$$\frac{dl}{dt} = (\alpha - \beta)l$$

bu yerda α va β - sintez va yemirilish jarayonlarini xarakterlovchi konstantalar.

Hosil bo'lgan ushbu differensial tenglamani yechish uchun o'zgaruvchilarni ajratamiz :

$$\frac{dl}{l} = (\alpha - \beta)dt$$

va oxirgi tenglamani integrallab

$$\int \frac{dl}{l} = \int (\alpha - \beta)dt$$

$$\ln l = (\alpha - \beta)t + \ln C$$

$$\ln l = lne^{(\alpha-\beta)t} + \ln C$$

tengliklar hosil bo'ladi.Oxirgi tenglikdan

$$l = Ce^{(\alpha-\beta)t}$$

umumiylar yechimni hosil qilamiz.

Bu differensial yechimning xususiy yechimni topish uchun quyidagi boshlang'ich shartlardan

foydalanamiz: $t = 0$ da $l = l_0$ ekanligidan

$$l = l_0 e^{(\alpha-\beta)t},$$

ya`ni hujayra uzunligi eksponent tezlik bilan o'sadi.

3-masala. Tovush maydonida hujayralarni yo'q qilish qonuni.

Ultrasonik to'lqlarning kavitsiyasi suspenziya muhitida tanaffuslar va mayda pufakchalar va bo'shliqlarning paydo bo'lishi shaklida namoyon bo'ladi, ularning zichligi suvning zichligiga nisbatan ahamiyatsizdir. Eng oddiy - bakteriyalar, suv o'tlari, xamirturushlar, leykotsitlar va eritrotsitlar - kuchli ultratovush maydonida yuzaga keladigan kavitsiya bilan yo'q qilinishi mumkin. Juda keng chastota diapazonida har xil turdag'i biologik hujayralarni yo'q qilishning nisbiy tezligi doimiy bo'lib qoladi. Ushbu ko'rsatkichlar har xil turdag'i hujayralarning nisbiy mo'rtligini tavsiflaydi. Buni miqdoriy aniqlash uchun doimiy tovush maydonida hujayralarni yo'q qilish tezligini aniqlash kerak. Ushbu savolni o'rganish natijasida quyidagi tenglama kelib chiqadi :

$$\frac{dN}{dt} = -RN,$$

bu yerda N - hujayralar konsentratsiyasi; t - vaqt; R doimiydir.

Bu tenglamadagi o'zgaruvchilarni ajratamiz va uni integrallaymiz:

$$\int \frac{dN}{N} = - \int Rdt$$

$$\ln N = - \int Rdt$$

$$\ln N = -Rt + \ln C$$

$$\ln N = lne^{-Rt} + \ln C$$

Yuqoridaq kabi ishlarni bajarib

$$N = Ce^{-Rt}$$

Umumiylar yechimni va Koshi masalasi, ya`ni $t = 0$ da $N = N_0$ shartni qanoatlanturuvchi xususiy yechim

$$N = N_0 e^{-Rt}$$

ni hosil qilamiz, ya`ni doimiy tovush maydonida hujayralarni yo'q qilish jarayonining eksponensial qonunga muvofiq matematik modelini hosil qilamiz.

4-masala. Epidemiya nazariyasida qo'llanuvchi differensial tenglamalarni tuzish va yechish.

O'rganilayotgan kasallik uzoq muddatli xarakterga ega bo'lishi sharti bilan epidemiyalar nazariyasida differensial tenglamalarni tuzish va hal qilishni ko'rib chiqaylik. Bunday holda, infeksiyani yuqtirish jarayoni kasallikning o'ziga qaraganda ancha tezroq bo'ladi va infeksiyalangan insonlar ular uchun ajratilgan joydan chiqarilmaydi. Boshlang'ich moment $t=0$ da kasallangan insonlar soni a bo'lsin, b -kasallik yuqmagan insonlar soni, $x(t)$ - t vaqtidagi infektsiyalanganlar soni va $y(t)$ - t vaqtidagi infektsiyalanmaganlar soni bo'lsin. Bunda bir avlodning umridan kamroq har qanday vaqt $[0, T]$ oralig'i uchun

$$x + y = a + b \quad (1)$$

tenglik o'rinni bo'ladi. Bunday sharoitda vaqt o'tishi bilan kasallanmagan insonlar sonining o'zgarishi qonunini $y=f(t)$ funksiyani topish kerak. Kasallanmaganlar infektsiya yuqtirgan insonlar bilan uchrashganda yuqadi. Agar ular kasallikni yuqtirilmagan bo'salar, u holda vaqt o'tishi bilan kasallangan va kasallikni yuqmagan insonlar o'rtasidagi uchrashuvlar soniga mutanosib ravishda kasallangan insonlar soni kamayadi. dt vaqt oralig'i uchun

$$\frac{dy}{dt} = -\beta xy$$

Bu yerda β - mutanosiblik koeffitsienti. Oxirgi differensial tenglamadan

$$\frac{dy}{dt} = -\beta xy$$

hosil bo'ladi. (1) tenglikdan x ni topib va uni differensial tenglamaga qo'yib, o'zgaruvchilari ajratiladigan differentsial tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\frac{dy}{dt} = -\beta y(a + b - y)$$

Oxirgi tenglamadagi differentsiallar va o'zgaruvchilarni ajratgandan so'ng

$$\frac{dy}{y(a + b - y)} = -\beta dt.$$

Bu tenglamani yechish uchun uning chap tomonini o'zgartiramiz va uni integrallaymiz:

$$\frac{1}{a+b} \int \left(\frac{1}{y} + \frac{1}{a+b-y} \right) dy = - \int \beta dt.$$

Hisob -kitoblar

$$|\ln y - \ln(a + b - y)| = -(a + b)\beta t + \ln C|$$

Yoki

$$\ln \frac{y}{a + b - y} = \ln e^{-\beta(a+b)t} + \ln C$$

Oxirgi tenglikdan

$$\frac{y}{a + b - y} = Ce^{-\beta(a+b)t}$$

Kelib chiqadi. Boshlang'ich shartlarga ko'ra: $t=0$ $y=b$ da C integrallash konstantasini topamiz :

$$\frac{b}{a+b-b} = Ce^0 \quad \text{yoki} \quad C = \frac{b}{a}$$

$C=b/a$ qiymatini oxirgi tenglikka qo'yib :

$$\frac{y}{a + b - y} = \frac{b}{a} e^{-\beta(a+b)t}$$

-differensial tenglananining xususiy yechimini hosil qilamiz. Ushbu tenglamani y ga nisbatan yechish natijasida

$$y(t) = \frac{b(a + b)}{b + ae^{\beta(a+b)t}}$$

MATEMATIKA

yechim hosil qilinadi. Olingen natija vaqt o'tishi bilan kasallanmaganlar sonini kamaytirish qonunini beradi.

5-masala. Mushaklarning qisqarish tezligi

$$\frac{dx}{dt} = B(x_0 - x)$$

differensial tenglama bilan tavsiflanadi, bu yerda x_0 mushakning to'liq qisqarishi; B - yukga bog'liq bo'lgan doimiy; x - hozirgi vaqtida mushakning qisqarishi. Agar $t=0$ vaqt momentida mushakning qisqarish qiymati 0 ga teng bo'lsa, mushaklarning qisqarish qonunini toping .

6-masala. Qalinligi 3 m bo'lgan suv qatlamidan o'tayotganda yorug'likning boshlang'ich miqdorining yarmi so'rilsa, bu miqdorning qaysi qismi 30 m chuqurlikka yetadi? Suvning qatlamidan o'tganda so'rilgan yorug'lik miqdori qatlam qalinligi va uning yuzasiga tushadigan yorug'lik miqdori bilan mutanosibdir.

7-masala. Agar dastlab ferment miqdori 1 g bo'lsa va 1 soatdan keyin u 1,2 g bo'lsa, u holda fermentatsiya boshlanganidan keyin 5 soatdan keyin u qanchaga teng bo'ladi? Fermentning o'sish tezligi uning mavjud miqdoriga mutanosib hisoblanadi.

Keltirilgan 5-7 –masalalar ham yuqoridagi masalalarga analogik ravishda yechiladi.

XULOSA

Differensial tenglamalar nazariyasi matematikaning bir bo'llimi sifatida turli sohalarga chuqur kirib borayotgan universal usul vosita ekanligi va biologiya kasbini egallayotgan mutaxassislar uchun ularning fikrlash madaniyatini , ya`ni yuqoridagi kabi masalalar biolog uchun matematik bilimlarning, jumladan, differensial tenglamalarning biologik jarayonlarni tatqiq etishdagi ahamiyatini yoritib beradi. Oddiy differensial tenglamalarning biologik jarayonlarga tatbigi haqidagi yuqoridagi misollar dengizdan bir tomchi, xalos. Differensial tenglamalarning boshqa tiplarini ham yanada murakkabroq bo'lgan biologik jarayonlarni o'rganishda qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR

1. М.С.Салохитдинов, Ф.Н.Насритдинов. Оддий дифференциал тенгламалар. Тошкент "Ўзбекистон" 1994 й. (M.S. Salokhiddinov, G'.N. Nasridinov. Ordinary differential equations. Tashkent "Uzbekistan" 1994)
2. Б.Г.Пигменов. Функционально –дифференциальные уравнения в биологии и медицине. Екатеринбург. 2008 г. В. G. Pigmenov. Functional and differential equations in biology and medicine. Yekaterinburg. 2008
3. А.К Юсупова,М. Д. Сайдахмедова. Применение дифференциальных уравнений в различных сферах жизни. So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy–uslubiy journali. 2022 у. № 2, 118-123 betlar. (A.K. Yusupova, M. D. Saidakhmedova. Primenenie differential equation and different spheres. The theory of recent scientific research. Republican scientific-methodical journal. 2022 No. 2, pp. 118-123)
4. А.К Юсупова, М.Муродова. Старинные медицинские задачи решаемые математическими методами. Тиббётда ахборот технологияларини ривожланиш истиқболлари. Республика конференцияси. Фаргона 2020 й. (A.K Yusupova, M.Murodova. Old meditsinskie zadachi solving mathematical methods. Prospects for the development of information technologies in medicine. Republican conference. Fergana , 2020)